

TOG‘AY MUROD BADIY PUBLITSISTIKASIDA IJODKOR MA‘SULYATI VA BADIY TAFAKKUR**Xidirova Munavvara Rustamovna**

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Jizzax davlat pedagogika universiteti, filologiya fakulteti dotsenti

ANNOTATSIIYA:Maqolada Tog‘ay Murod ijodkor sifatida shakllanish jarayoni va uning adabiyotga e‘tiqodi tahlil etilgan. Yozuvchining kundaliklari, hasbi holi va maqolalari asosida uning badiiy publitsistik tafakkuri, “o‘zbekona modern” yo‘nalishi hamda ijtimoiy-ma‘naviy dunyoqarashi ochib berilgan. Shu bilan birga, adabiy muhit va jahon adabiyoti ta‘sirini uning estetik qarashlari bilan uyg‘unlikda talqin etilgan.

Kalit so‘zlar: Tog‘ay Murod, badiiy publitsistika, o‘zbekona modern, jahon adabiyoti, estetik qarashlar, ijodiy shakllanish, ijtimoiy-ma‘naviy dunyoqarash.

ANNOTATION:The article analyzes the creative development of Tog‘ay Murod and his devotion to literature. Based on the writer’s diaries, autobiographical notes, and articles, it explores his artistic and journalistic thinking, the features of the “Uzbek-style modernism,” as well as his socio-spiritual worldview. At the same time, the impact of the literary environment and world literature is interpreted in harmony with his aesthetic views.

Keywords: Tog‘ay Murod, artistic journalism, Uzbek-style modernism, world literature, aesthetic views, creative development, socio-spiritual worldview.

АННОТАЦИЯ:В статье анализируется творческое становление Тогай Мурода и его преданность литературе. На основе дневников писателя, автобиографических заметок и статей рассматриваются его художественно-публицистическое мышление, особенности «узбекского модерна», а также социально-духовное мировоззрение. Одновременно раскрывается влияние литературной среды и мировой литературы в гармонии с его эстетическими взглядами.

Ключевые слова: Тогай Мурод, художественная публицистика, узбекский модерн, мировая литература, эстетические взгляды, творческое становление, социально-духовное мировоззрение.

Taniqli ijodkorning badiiy olami, estetik qarashlari hamda ijodiy konsepsiyasining shakllanishida muhim rol o‘ynagan hayotiy, ma‘naviy va badiiy-estetik omillarni o‘rganish adabiyotshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki har bir yirik adibning ijodi uning shaxsiy hayot tajribasi, ma‘naviy kamoloti, mutolaa madaniyati hamda o‘z davrining ijtimoiy-madaniy muhitidan oziqlanadi. Shu ma‘noda Tog‘ay Murod fenomenini anglash uchun ham uning ijodiy shakllanish bosqichlari, dunyoqarashining rivojlanish jarayoni va badiiy tafakkur manbalarini tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi.

Yozuvchining ijodiy qobiliyati va adabiyotga bo‘lgan mehr-muhabbati bolalik hamda o‘smirlik yillaridayoq namoyon bo‘la boshlagan. Maktab davridan boshlab kitob mutolaasiga bo‘lgan cheksiz qiziqishi, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga mas‘uliyat bilan yondashishi, kundalik daftarlarida qayd etgan kuzatuvlari va hayot haqidagi mushohadalari kelajakdagi yirik adib shaxsining dastlabki belgilarini namoyon etadi. Uning ilk hikoya va maqolalari matbuotda chop etilishi natijasida yosh iste‘dod sifatida tanila boshlaganiga qaramay, Tog‘ay Murod o‘z bilim va dunyoqarashini yetarli deb hisoblamaydi. Aksincha, u ijodkor uchun keng bilim, chuqur tafakkur va jahon adabiyotini puxta o‘zlashtirish zarurligini anglab, o‘z ustida izchil ishlash

yo'lini tanlaydi. Shu maqsadda Moskvada tahsil olishga qaror qilishi ham uning ijodga jiddiy munosabatda bo'lganini ko'rsatadi. Adibning o'z hayoti haqida bildirgan fikrlari ham uning ma'naviy-intellektual qiyofasini yaqqol namoyon etadi. Tog'ay Murod o'z oldiga ma'lum yoshgacha jahon adabiyotining eng sara namunalarini chuqur o'rganish vazifasini qo'yganini ta'kidlaydi. Shu yo'lda u moddiy manfaatlar, mansab yoki shon-shuhrat orttirishga emas, balki mutolaa va izlanishga ustuvor ahamiyat berganini qayd etadi. Uning fikricha, haqiqiy ijodkor doimo o'z ustida ishlashi, bilim va mahoratini muntazam ravishda boyitib borishi lozim. Yozuvchi bu jarayonni kurashchi-polvonning o'zini chiniqtirishiga qiyoslaydi. Qanday qilib polvon mag'lubiyatdan keyin yanada kuchliroq tayyorgarlik ko'rsa, ijodkor ham duch kelgan qiyinchilik va to'siqlardan ruhiy quvvat olib, yangi marralar sari intilishi kerak. Adibning bolalikdan kurash muhitida ulg'aygani, polvonlik fazilatlarini ajdodlaridan meros bo'lib o'tganini ta'kidlashi uning xarakteridagi qat'iyat, iroda va matonatning muhim manbalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Tog'ay Murod dunyoqarashi va badiiy tafakkurining shakllanishida Sharq mumtoz madaniyati, islomiy-ma'rifiy qadriyatlar hamda jahon adabiyotining ilg'or an'analari muhim o'rin tutgan. Uning ijodida milliy ruh va umuminsoniy g'oyalarning uyg'unlashuvi aynan shu ma'naviy manbalar bilan bog'liqdir. Adibning jahon adabiyotiga bo'lgan qiziqishi tasodifiy emas, balki izchil mutolaa va chuqur o'rganish natijasidir. Bu jihatni Tog'ay Murodning yaqin suhbatdoshi va ijodini chuqur bilgan adabiyotshunos olim Umarali Normatov xotiralarida ham ko'rish mumkin. Uning qayd etishicha, ayrim tanqidchilar yozuvchini faqat milliy-etnografik mavzular doirasida ijod qiluvchi adib sifatida baholashga uringanlar. Biroq Tog'ay Murod bunday qarashlarga qat'iy e'tiroz bildiradi. U jahon adabiyotidagi modernizm, absurd va ong oqimi kabi yo'nalishlarni chuqur o'rganganini, Fredrix Nitshe, Franz Kafka, James Joys hamda Albert Kamyu kabi mutafakkir va adiblarning asarlarini bir necha bor mutolaa qilganini ta'kidlaydi. Hatto Joysning mashhur Ulysses romanini rus tilidagi nashridan avvalroq qo'lyozma holda o'qiganini va uni o'zbek tiliga tarjima qilish niyati bo'lganini ham eslatadi. Yozuvchining bu fikrlari uning jahon adabiy jarayonlaridan yaxshi xabardor bo'lganini, zamonaviy adabiy oqimlarning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o'zlashtirganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, Tog'ay Murod uchun muhim masala G'arb adabiyotiga taqlid qilish emas, balki milliy adabiy tafakkur asosida yangi badiiy shakllarni yaratish bo'lgan. U o'zbek xalqining ruhiyati, mentaliteti va hayot falsafasidan kelib chiqadigan o'ziga xos modernizm, absurd va ong oqimi poetikasini yaratish mumkinligiga ishongan.

Professor Umarali Normatovning kuzatishlariga ko'ra, tashqi ko'rinishidan bosiq va kamgap bo'lib ko'ringan Tog'ay Murodning ichki olamida kuchli iztiroblar, chuqur dard va murakkab ruhiy kechinmalar yashagan. Aynan shu ichki ziddiyatlar, ruhiy izlanishlar va ma'naviy kurashlar yozuvchining betakror badiiy olamini shakllantirgan asosiy omillardan biri bo'lgan. Shu bois Tog'ay Murod ijodini faqat milliy hayot tasviri bilan cheklab bo'lmaydi; uning asarlarida Sharq va G'arb madaniyati, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, an'ana va zamonaviylik o'zaro uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi. Bu esa adibning o'zbek adabiyoti taraqqiyotidagi alohida o'rni va badiiy-estetik tafakkurining ko'lamini belgilab beradi.

Yozuvchi yoshlikdan o'qigan yuzlab adabiyotlar va shaxsiy kutubxonasidagi kitoblar ro'yxat qilinsa, yirik katalog bo'ladi. Qur'oni karim va hadislar, Navoiy, Rumi, So'fi Olloyor kabi allomalarning asarlari, adib vafotidan bir necha kun avval o'qigan va boshqa manbalar ham ijodkor shaxsi, intellektual dunyosidan so'zsiz guvohlik berib turadi. Bular ham Mirpo'lat Mirzo ta'kidlaganidek [1.52-56], Tog'ay Murod iste'dodi, tafakkuri takomilida muhim rol o'ynagan omillar, u oziqlangan manbalardir. Pushkin, Oybek, Hamid Olimjon, Chingiz Aytmatov yo Muhammad Yusufkar iste'dodining uyg'unishi, ma'naviy-ruhiy quvvat yig'ishi, dunyoqarashining shakllanishi va ularning muayyan maqsad sari yo'nalishida ham buvi, bobosi madadkor, rahnamo bo'lganligi ham muhim omildir. Xuddi shunday, dostonlarni yod olgan va qo'shiq aytgan Tog'ayning otasi, hamqishlog'i Bo'ri bobo Murodov kabilar millat tafakkuri

namunalarini, ertak-afsonalari, xalq hikmatlarini bola qalbiga joylagani ham undagi tabiiy iste'dod rivojida muhim manba, zamin bo'lgani shubhasiz.

Darhaqiqat, ijodkorning ijtimoiy va adabiy biografiyasini uning adabiyot haqidagi qarashlari bilan bog'liq holda o'rganish maqsadga muvofiqligi isbotlangan (M.Baxtin). Tog'ay Murodning ham shaxsiy, ijtimoiy tarjimai holi davr bilan bog'lab o'rganilsa, uning ijodkor sifatidagi shaxsi yanada to'liq, ravshanroq namoyon bo'ladi. Tog'ay Murodning ijodkorlik talanti yorqin bo'lganidek, uning badiiy so'zga, badiiy adabiyotga e'tiqodi ham shunday yuksak, adabiy-estetik qarashlari ham teran, milliy zaminga asoslangan. Ular adib ijodi va asarlari bilan qo'shqanot kabi ajralmas, yaxlit bir olam [2.226]. Zotan, adibning adabiy-estetik qarashlarida uning ijodiy maqsad yo'nalishi, asarlarining hayotiy mazmuni, ruhi chuqur aks etib turadi. Bu jihatdan yosh adibning Yozuvchilar uyushmasiga katta ixlos, o'ziga xos talabchanlik bilan bitgan to'yxati ham diqqatga loyiq. Ushbu e'tirofnomada adabiyotni muqaddas bilishi, ulug' ustozlarga shogirdlik ehtiromi va ularning ijodiy an'analari bardavomligi ham teran ifodalangan: "Oybek vafot etmish kunlar edi. Shu boisdan, Pirimqul akamiz zo'r qayg'u bilan mana bunday dedi: "G'afur aka ketdi, Abdulla aka ketdi. Mana Oybek aka ham ketdi. Yozuvchilar uyushmasi ulardan bizga meros qoldi. Biz shu merosni boyitish uchun jonimizni kuydirib mehnat qilishimiz, shu merosni avaylashimiz kerak". Yigirma besh yilki, Pirimqul akamizning so'zlari miyamda qo'rg'oshinday quyulib keladi." Tog'ay Murod adabiyot va ijodni teran tushunib, yuksak qadrlaydi. Adabiyot uning uchun qismat ekanligini islomiy ma'rifat nuri bilan anglaydi. O'zgalardan, xususan, yoshlardan ham ana shunday e'tiqod kutadi. Uning uchun Yozuvchilar uyushmasi – qalamkashlar masjidi. "Ijodkorning pok qalbida shu muqaddas dargohga ichki mehr-sadoqat yotadi. Ana shu mehr- sadoqat payvand bo'lib, e'tiqodga aylanadi. Qodiriy va Cho'lpondan, Oybek va Qahhorlardan qolmish tabarruk merosga munosib bo'lmagan qalamkash shoirman, yozuvchiman, adabiyotshunosman deyishga ma'nau haqqi yo'q" [3.66-61]. Tog'ay Murod ustozlar an'analari mohirona davom ettirish bilan birga, adabiyotimiz tarixida yangi bir sahifa ochishga muvaffaq bo'lganini hatto uning "g'anim"lari ham inkor etmasa kerak. Ijodkor shaxsining shakllanishi, o'ziga xosligi tarixiy sharoit, muhit ta'sirida ro'y beradi. Adibning hayotiy pozitsiyasi va ideali ham ijtimoiy-tarixiy, siyosiy, diniy-ma'rifiy sohalar bilan bog'liq holda rivojlanadi. Adabiy muhit, davr, zamon, makon, keng bilim kabi komponentlar san'atkor tafakkuri va dunyoqarashini boyituvchi omillar sanaladi. Tog'ay Murodning adabiy-biografik esse shaklida bitilgan tarjimai holi ilk marta 1994 yili nashr etilgan "Otamdan qolgan dalalar" romaniga ilova qilingan. Yozuvchining 2001 yil nashr qilingan "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romani so'ngida ham uning turkum adabiy-tanqidiy maqolalari va intervyusi berilgan, ularda ham adabiyot spesifikasi, yozuvchilik burchi haqidagi o'ziga xos qarashlari aks etgan. Adibning ijodkor sifatidagi hasbi holi, ijodining ilk kurtak va "xamirturush"ini o'rganishda Kundaliklari, yozishmalar, xotiralar, qaydlar bilan birga uning ijodiy merosi birlamchi manba bo'lib xizmat qiladi.

Ijodkor iste'dodi, eng avvalo, hayot voqeliklarini san'atkorona idrok etishi hamda ularni badiiy mahorat bilan aks ettirishida namoyon bo'ladi. Hayotni badiiy obrazli idrok etishda kuchli salohiyatga ega bo'lishi asarning muvaffaqiyatini ta'minlovchi shartlardan eng muhimidir. Ijodga tashnalik, ruhiy bedorlik, mehnatga ishtiyoq, keng qamrovli kuzatuv, hissiy sezim va hayotiy tajriba ham ijodkorlikning zaruriy sifatleri sanaladi. Voqelikka teran munosabat, xolis nuqtai nazar, muhimdan nomuhimni ajrata olish, mantiqiy tugallik ijodkorga ichki ishonch, qanoat bag'ishlaydi. "Ozgina so'z aytish uchun u juda ko'p ko'rishi, voqealarni, biografiyalarni, faktlarni, hislarni, o'ylarni, inson ruhiyatini chuqur bilishi kerak. Injenerning, akademiklarning bilishi shart bo'lmagan sohalar bor. Yozuvchining unday sohasi yo'q" [4.39]. Ijodkor keng qomusiy bilimlar sohibi bo'lish barobarida jamiyat hayotiga faol munosabatda o'z nuqtai nazari, qat'iy pozitsiyasiga egaligi bilan ham boshqa insonlardan va mutaxassislardan ajralib turadi.

Abdulla Qodiriy yoshlar bilan uchrashuvda o'zining yozish usuli haqida shunday deydi: "Har yozuvchining o'z o'rgangan yo'li bo'ladi. Men oldin shakl-jismi ko'z oldimga yaxlit keladigan bo'lguncha asarni butun o'ylab chiqaman. Asosiy qahramonlarning rang-ro'yi, fe'l-

atvori ko‘rina boshlaydi, ko‘ngil yorishadi, ishga kirishaman, shakl va mazmun yaxshi yetilgan bo‘lsa, meni qahramonlarimning o‘zlari voqealar ichiga yetaklaydilar” [5.29]. Demak, yozuvchi asar voqealarini xayolida pishitib, materialni har tomonlama puxta o‘rganib bo‘lganidan keyingina ijod qilish – asar yozishni boshlashni o‘zi uchun maqbul odatga aylantirgan. Ya‘ni adib bo‘lajak asarining “shakl va mazmuni” tayyor bo‘lganligiga ishonch hosil qilgandan keyingina qo‘liga qalam olib yozishga kirishgan. Ulkan ustoz adibning bunday odati, tartib-qoidasi uning o‘zi uchungina emas, balki boshqa ijodkorlar uchun ham badiiy ijodning asosiy bir talab-mezoni bo‘la oladi desak xato qilmagan bo‘lamiz. Z.Freyd, K.Yung kabi psixanalitiklar ta’kidlaganidek, bunday ijodiy va ruhiy tayyorgarlik boshqa ko‘plab shoirning, yozuvchilarning ijod jarayonlari uchun ham mushtarak bir bosqich ekanligi adabiyotshunoslik olamida ko‘p bora e’tirof etilgan.

Tog‘ay Murod “qo‘l qotib qolmasin uchun” mayda hikoya va maqolalar yozib turish kerakligini ta’kidlab, shu tartibga amal qilganligi ham ijodning ana shunday qat‘iy bir talabi ekanligini ko‘rsatadi. Ijod qilishning barcha uchun baravar “universal retsepti” yo‘q deyishadi. Ammo chinakam ijodning “temir qonuni” borki, bu – avvalo, muttasil faoliyatni va fidoyilikni talab etadi. Jahon adabiyotining ulkan adiblari yakdillik bilan aytganidek, adabiyot inson qalbining hammasini talab qiladi, talant kun sayin mehnat bilan jilo berib turilmasa, zanglab, butunlay yaroqsiz bo‘lib qoladi. Tog‘ay Murod uchun ham bu muqaddas qoida edi. “Yozuvchi pensiyaga chiqmaydi. Yozuvchi o‘lganda pensiyaga chiqadi. Yozuvchi o‘lganda tinadi! Yozuvchi borki, umr bo‘yi o‘qib-izlanishi kerak. O‘qib-izlanish bu – poydevor demak, teran tomir demak. O‘qib-izlanish – ichki kuch-qudrat demak. Ichki kuch-qudrat buloqqa o‘xshaydi. Buloqning yo‘lida qanaqa qiyinchilik bo‘lmasin, baribir otilib chiqadi. Chunki buloqda ichki kuch-qudrat bor, poydevor bor” [6.96] Bu so‘zlar ham Tog‘ay Murod iste’dodi va ijodkor shaxsiga yorug‘ ko‘zgu bo‘la oladi. Mashhur adiblarning adabiyotga munosabati hamda ijod jarayoni haqidagi mushtarak qarashlari bilan Tog‘ay Murodning fikrlariga qiyosiy nazar solinsa, ular o‘rtasida juda yaqinlik, o‘xshashlik ko‘pligidan hayratlanish mumkin. Dalil sifatida Tog‘ay Murodning quyidagi fikrlarini keltirish kifoya: “Men yozmoqchi bo‘lgan asarim mavzusini mayda detallarigacha o‘rganib chiqaman. Tasvirilayotgan joyimni borib o‘z ko‘zim bilan ko‘raman, bo‘lmasa ko‘nglim to‘lmaydi. Asar pishib-yetilgandan keyin esa uyga qamalib olaman... bu payt menga hech kim xalaqit bermasligi kerak...”. Tog‘ay Murodning ustozlari fikrlariga hamohang e’tiroflari uning ijodkorlik shaxsi va ijod jarayoni mashaqqatlarini yoritganligi bilan ham muhimdir.

“Yozuvchi asari bilan adabiyotni egallaydi. Adabiyot – ulkan bir qasr. Asl ijodkor Adabiyot qasrini o‘z asari bilan zabt etadi. Asl ijodkor el-yurtga “ura-ura” gaplari bilan emas, badiiy asarlari bilan xizmat qiladi,” degan edi Tog‘ay Murod 1990-yili gazetaga intervyusida. Ulkan adiblar ijodi, ibratli tajriba-mahorati va an‘analarini qadrlagan Tog‘ay Murod o‘z asarlari bilan adib uchun tabiiy iste’dodning o‘zigina yetarli emasligi, balki hayotni chuqur o‘rganishi va qahramonlari bilan birga yashashi, ularning dardu tashvishlarini birga kechirishi talab etilishini ajoyib bir tarzda isbotlab berdi. Tog‘ay Murod asarlarini yuksak bir cho‘qqi deb ta’riflagan atoqli adib Odil Yoqubov ta’kidlaganidek, “Adabiyot bor haqiqatni ayta olsa, hayotning achchiq tomonlarini ko‘rsata olsagina adabiyot bo‘ladi. Ulug‘ adiblar qo‘ygan talablarga Tog‘ay Murod ijodi juda mos keladi”. U buyuk salaflar kabi adabiyotni, ijodni muqaddas bilgan, dili bilan tili bir adib edi. U o‘zi orzu qilganday, haq so‘zi, haqqoniy asarlari bilan xalqimizga ma’naviy haykal qo‘ya oldi. “Yurt qayg‘usini kuylagan buyuklar safiga Tog‘ay Murod nomi ham qo‘shildi” [7.113]. Bu ijod hech mubolag‘asiz Istiqlol davri adabiyoti va milliy tafakkurimiz rivojiga qo‘shilgan munosib bir ma’naviy-ruhiy boyluk sifatida tahsinga loyiqdir.

Tog‘ay Murod shaxsi va betakror ijodi haqida o‘ylaganda, mashhur nemis adibi Tomas Manning quyidagi fikrlari yodimizga keladi: “Yozuvchi – bu timsoldir. Men o‘zimni tahlil qilish orqali butun boshli davrim, bani bashar haqida yetarli va haqqoniy ma’lumot bera olishim mumkinligini anglab yetdim. Zero, bani insoniyatga xos barcha timsollar yozuvchining o‘zida

yashiringan”. Ushbu fikrni Tog‘ay Murod ham yirik bir ijodkor sifatida aytishga har jihatdan haqli bo‘lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.Mirzo Oq sallali tog‘lar duosi. . “Men qaytib kelaman” Tog‘ay Murod zamondoshlari xotirasida. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – B. 52-56.
2. Qosimov U. Adabiy-estetik tafakkur tadriji: an’anaviylik, vorisiylik, o‘ziga xoslik (Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor va Tog‘ay Murod ijodi misolida). Filol.fanlari d-ri... diss. – Toshkent, 2020. – 226 b.
3. Tog‘ay Murod. Tanlangan asarlar. 3-jild. Hikoyalar, maqolalar, kundalik daftardan. – Toshkent: Sharq, 2019. – B. 60-61.
4. Asqad Muxtor. Tundaliklar. –Toshkent: Ma’naviyat, 2015. – B. 39 .
5. Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida. –Toshkent, Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986. – B.29.
6. Tog‘ay Murod. Tanlangan asarlar. 3-jild. Hikoyalar, maqolalar, kundalik daftardan. – Toshkent: Sharq, 2019. – B. 96.
7. Obloqulov S. Ko‘ngli behad nozik edi. “Men qaytib kelaman” Tog‘ay Murod zamondoshlari xotirasida. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – B.113.